XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-aprel VI-49-38-1-22-K/24 Izboskan tumani

Izboskan tuman markazini kompleks rivojlantirish boʻyicha tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari A.Nazarovning hisoboti

Izboskan tuman markazini kompleks rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida Qashqarlik MFY Naqshband koʻchasida avtomobillar harakatini tartibga solish, tirbandliklarni oldini olish maqsadida, “Avtomobillar vaqtincha toʻxtash joyi(Avtoturargoh)” loyihasi ishlab chiqilgan.

Ushbu loyihalangan yer maydonida “Muzqaymoq kafesi va fontan” mavjud boʻlib, bu Izboskan tuman hokimining 2017 yil 19 iyun kungi №753-K sonli qaroriga asosan fuqaro Abdukarimov Mirzoxidga 540 kv/m yer maydoni vaqtincha foydalanish uchun ajratib berilgan.

Ushbu qarorning 3-bandida:

1.“Arxitekturaviy-rejalashtirish topshirigʻi” va loyixa-smeta xujjatlari ishlab chiqish.

2. Loyixa-smeta hujjatlarini ekspertizadan oʻtkazish.

3. 2016-yil 1 apreldagi №11/598-son raqamli “Davlat ekologik ekspertiza xulosasi”da koʻrsatilgan shartlarni bajarish.

4. Qurilish ishlarini loyixa asosida olib borish va qurilish soʻngida tuman qabul komissiyasiga topshirish yuklatilgan.

Biroq, fuqaro Abdukarimov Mirzoxid qarorning ushbu (3-bandi) bandidagi talab va shartlarni bajarmagan hamda tegishli shaxarsozlik hujjatlarini rasmiylashtirmasdan va qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyektni roʻyxatdan oʻtkazmasdan qurilish ishlarini olib borgan.

Shuningdek, qarorning 4-bandida davlat va jamoat ehtiyoji uchun ajratilgan yer maydoni zarur boʻlgan taqdirda “Muzqaymoq kafesi va fontan” bino-inshootlarni fuqaro Abdukarimov Mirzoxid oʻz xisobidan bartaraf qilishi (buzish, yer maydonini boʻshatib qoʻyish) belgilab qoʻyilgan.

Yuqoridagilarni koʻrib chiqib, muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Izboskan tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.Izboskan tuman markazini kompleks rivojlantirish boʻyicha tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari A.Nazarovning hisoboti maʻlumot uchun qabul qilinsin.

2. Izboskan tuman hokimligiga:

- Izboskan tuman hokimining 2017 yil 19 iyun kungi №753-K sonli qarori talablari fuqaro M.Abdukarimov tomonidan bajarilmaganligi;

- Qashqarlik MFY Naqshband koʻchasida joylashgan kv metr yer maydoniga qurilgan qurilmalarga tegishli tartibda qonuniy xujjatlar (kadastr xujjatlari) rasmiylashtirilmaganligi;

- Izboskan tuman hokimining 2017 yil 19 iyundagi №753-K sonli qarorining 3-bandida keltirilgan talablarga M.Abdukarimov tomonidan toʻla amal qilmaganligi:

-2017 yildan buyon 540 kv m yer maydonidan foydalanib kelganligi hamda hech qanday soliq toʻlovlarini amalga oshirmaganligi sababli yer maydonini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish hamda noqonuniy qurilmalarni fuqaro M.Abdukarimov hisobidan buzdirish toʻgʻrisida sudga murojaat qilish tavsiya etilsin.

3. Kelgusida qayd etib oʻtilgan hudud sud qarori bilan hal etilgandan soʻng tuman markazini kompleks rivojlantirish boʻyicha avtomashinalarni tirbandligi oldi olinishi hamda avtomobillarini harakatlanishiga toʻsqinliklarni bartaraf etilishini inobatga olgan holda avtotururgox tashkil etish maqsad qilib belgilansin.

5.Tuman arxitektori tomonidan koʻrsatilgan yer maydoniga kelgusida avtoturargoh tashkil etish boʻyicha loyixa tavsiya etilsin, ushbu loyixani sifatli darajada amalga oshirish topshirilsin.

6.“Arxitekturaviy-rejalashtirish topshirigʻi” va loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqisin.

7.Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Mamajonov) mazkur qarorning mazmun va mohiyati, tuman infratuzilmasini yaxshilash orqali aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarning koʻlami va islohotlarning natijalarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8.Mazkur qaror ijrosini taʻminlash tuman hokimining oʻrinbosari A.Nazarovga, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDULLAYEV
ABDULXAFIZ
AXMADJONOVICH